

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ANTONIM SO‘ZLARING TILAK JO‘RA IJODIDAGI IFODASI

Xo‘jamova Mu‘tabar Sanaqul qizi

Navoiy davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: xojamovamotabar@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6994-8259>

Annotatsiya.

Maqolada Tilak Jo‘ra she‘rlarida uchraydigan antonim so‘zlar tahlil qilinadi. Lug‘aviy va kontekstual antonimlar alohida o‘rganilib, shoir ijodida boshqa ijodkorlar asarlarida kam uchraydigan o‘ziga xos antonimik birliklar mavjudligi aniqlanadi. Shuningdek, shoirning she‘riy misralarda antonimik juftliklardan o‘rinli va mahorat bilan foydalanishi, ularning badiiy ifoda hamda mazmuniy qarama-qarshilikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: antonimiya, tazod, lug‘aviy antonim, kontekstual antonim, antiteza.

ВЫРАЖЕНИЕ АНТОНИМОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ТИЛАКА ДЖУРЫ

Ходжамова Муътабар Санакул кизи

Навоийский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируются слова-антонимы, встречающиеся в поэзии Тилака Джур. Отдельно рассматриваются лексические и контекстуальные антонимы, выявляются своеобразные антонимические единицы, редко встречающиеся в произведениях других авторов. Особое внимание уделяется мастерскому и уместному использованию поэтом антонимических пар в стихотворных строках, а также их роли в усилении художественной выразительности и смыслового противопоставления.

Ключевые слова: антонимия, tazod, лексический антоним, контекстуальный антоним, антитеза.

THE EXPRESSION OF ANTONYMS IN THE WORKS OF TILAK JURA

Xo‘jamova Mu‘tabar Sanaqul qizi

Navoi State University, PhD Student.

Abstract.

This article analyzes antonyms used in the poetry of Tilak Jura. Lexical and contextual antonyms are examined separately, revealing distinctive antonymic units that are rarely found in the works of other authors. Particular attention is paid to the poet's skillful and appropriate use of antonymic pairs in poetic lines and their role in enhancing artistic expressiveness and semantic contrast.

Keywords: antonymy, tazod, lexical antonym, contextual antonym, antithesis.

Kirish. Har qanday til o‘zining ko‘pqirrali kommunikativ-funksional ehtiyoji va vazifasini ta‘minlay oladigan darajada lisoniy vositalarga ega. Mana shunday vositalardan biri konkret va mavhum, real mavjud yoki xayoliy, diniy-falsafiy, madaniy va maishiy sohalarga oid narsa va hodisalar haqida tushunchalarni ifoda etuvchi leksema (so‘z)larning [2; B. 7].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda Tilak Jo‘ra she‘riyatida antonimik birliklarning qo‘llanilish xususiyatlari, ularning lisoniy va badiiy-estetik vazifalarini ochib berishda bir qator ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, ishning ilmiy asosini ta‘minlash maqsadida quyidagi usul va prinsiplardan foydalanildi: tavsifiy, tasnifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma.

Antonimlar badiiy nutqning ifodaviyligi, ekspressivligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashda qulay vositalardan biridir [3; B. 33]. Antonimlik til sathining deyarli barcha bo‘limlariga xos hodisa bo‘lib, fonetik, leksik, grammatik (morfologik) va sintaktik birliklar doirasida namoyon bo‘ladi. Mazkur hodisa barqaror birikmalarda ham keng qo‘llanadi. Antonimik munosabatda bo‘lgan birliklar mazmunan bir-biriga zid bo‘lgan tushuncha va tasavvurlarni ifodalab, qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Antonimlik hodisasi adabiyotshunoslikda antiteza usulining, xususan, tazod san‘atining shakllanishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. *Antonimiya* – til birliklarining o‘zaro semantik jihatdan zid, qarama-qarshi bo‘lish hodisasi [4; B. 5]. So‘z turkumlari bo‘yicha antonimlar belgi bildiradigan so‘zlar doirasida, ayniqsa, sifat va ravishlar orasida ko‘p uchraydi. Antonimlik hodisasi tilshunoslikda keng tadqiq etilgan. Mazkur hodisani o‘rganishda muhim amaliy manba bo‘lib xizmat qiladigan lingvistik lug‘at — antonimlar lug‘ati ham yaratilgan.

Muhokama va natijalar: Shoirilar badiiy asarda antonimlarni o‘rnida qo‘llash orqali asarda ifodalilik va ta‘sirchanlikni ta‘minlaydi. Tilak Jo‘ra ko‘pgina iste‘dodli shoirilar singari ijodi davomida antonim so‘zlarga alohida e‘tibor bilan yondashgan. Shoirning antonimlardan juda ko‘p va o‘rinli foydalanib she‘riy misralar yaratganligiga guvoh bo‘lamiz. Tilak Jo‘raning birgina “Yulduzlar tabassumi” she‘riy to‘plamida xilma-xil antonimlar uchraydi. Bu shoirning poetik mahoratidan dalolat bera oladi. Shoirning “Yulduzlar tabassumi” to‘plamidagi antonimlik:

1. Lug‘aviy antonimlik: *Buncha ham mehribondir turnalar bizga: Bahor**ni boshlab keladi. Buncha ham*

mehribondir turnalar bizga: **Kuz**ni** ham tashlab ketadi. ("Saxiylik") **Yoz**im** juda ko'm-ko'k/ **Qish**im** juda oppoq. ("Marsdan kelgan odam") Kimni **kuldirdi***-yu, kimni* **yig'latdi***/ To'rt ufqli kichik mayxona.* ("Umar Xayyom") **Orzu bilan otadi har tong***/ Qayg'u bilan cho'kadi har* **shom****. ("Nozim Hikmat so'zi") **Baliqqa keng ummon tor** keldi bugun. ("Mast bo'lgan tuyaday pishqirar olam") **Oq** kenglikdan qamashgan ko'zlar/ Izlar endi tirnoqcha **qora****. ("Qor") **Dilda na quvonch*-u** na* **qayg'u** hokim/ Barini tobutga qo'yganday ortib! ("Rashk") **Topish** – mendan, **sarf qilish** – sendan! ("U juda shod edi...") Men yorimni **topganda***/ Oy o'rog'in* **yo'qotdi****. ("Sodda dehqon sarguzashti")

2. Kontekstual antonimlik: Mening bu xayollarimdan kimdir **kular***, kimdir* **yig'lar****. ("Qizil gulday tutay senga o'zimni...") **Seni asrab kelaman men ham/ Saraton*-u* qahraton**lardan**. ("Yurak") **Hayot va o'lim**ning fahmiga yetmoq bo'lib/ Umidsizlik bilan kasal qildim o'zimni**. Yozim juda **ko'm-ko'k*/ Qishim juda* oppoq**. ("Marsdan kelgan odam") **Orzu bilan otadi har tong/ Qayg'u bilan cho'kadi har shom**. ("Nozim Hikmat so'zi") **Gujum shoxiday chayir barmoqlari bilan/ Suv**dan suyuq/ O't**dan issiq qumni changallab...** ("O'n to'p g'o'za") **Tarang tortilgan kamon shirt etib uzilar****. ("U juda shod edi...") "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da mavjud emasligi ham ularning matniy antonimligidan dalolat beradi.

Tilak Jo'ra birgina satrda bir nechta antonim juftliklardan mohirlik bilan foydalanganini boshqa she'riy to'plamlaridan ham kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Qora tunlar, oydin sahar**da**

Derazadan uzmay ko'z qirin

Mo'jizalar kutar o'spirin.

"O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da **qora** so'zining antonimi sifatida **oq** leksemasi keltirilgan. Misrada esa **qora** va **oydin** so'zlari kontekstual antonimlik hosil qilgan. Shuningdek, lug'atda **kun-tun, kunduz-kecha, kunbotar-kunchiqar** tarzida antonimlar berilgan. **Sahar** so'zi aynan antonimlik sifatida keltirilmagan, lekin so'z ma'no jihatdan qarama-qarshilikni bildirayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shoir "**qora tunlar – oydin sahar**" tarzida qarama-qarshi qo'yish orqali qorong'ilik va yorug'lik, umidsizlik va umid holatlarini badiiy ifodalagan. Mazkur zidlik she'rning mazmuniy-emotsional ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ma'lumki, hodisalarni turli zidlanishlar asosida tasvirlash ularning mohiyatini yorqinroq ochishda eng zaruriy jihatdir. Badiiy nutq uchun esa bu usul ifodalilikni, ta'sirchanlikni oshirishdagi juda keng ko'lamli imkoniyat hisoblanadi [1; B. 20].

Qancha qora bo'lmasin

Kechaning kunduz**i bor**

Qancha daydi bo'lmasin

Shamolning ildizi bor.

Misrada **kecha** va **kunduz** so'zlari antonimlik hosil qilgan. Lug'atda ham **kunduz** – sutkaning quyosh chiqqandan to quyosh botgunga qadar davom etadigan qismi, **kecha** esa sutkaning quyosh botgandan to quyosh chiqquncha davom etadigan qismi ekanligi berilgan [8; B. 120]. Demak, mazkur birliklar vaqt tushunchasiga ko'ra o'zaro zidlanib, qarama-qarshilikni ifodalaydi. Shoir "**kechaning kunduzi bor**" tarzidagi antonimlikni qo'llash orqali har qanday og'ir va qorong'u holatning ortidan yorug'lik, ya'ni umid kelishini ta'kidlagan. Antonimlar badiiy tasvirda katta ahamiyatga ega. Ular fikrni ta'sirli va ifodali qiladi. Shuning uchun ham ular ko'pincha publitsistik va badiiy uslubda ishlatiladi. Mazkur usuldagi tasvirda yozuvchi yoki shoir biror shaxs yoki voqea haqida ma'lumot beradi va bu shaxs yoki voqeaga nisbatan kitobxonda simpatiya yoki antipatiya uyg'otadi [10; B. 57].

O'lsa ham, odamni tinch qo'ymas bular,**

*Ularning dastidan yasha**b ham bo'lmas...*

Yuqoridagi parchalarda qo'llangan antonimlar she'riyatning lirik qimmatini oshirgan va leksik vositalar kuchli tarzda poetik aktuallashtirgan. Mazkur fe'llar insonning mavjudlik holatiga ko'ra bir-biriga zid ma'noni ifodalaydi. **O'lmoq** hayotning yakunlanishini, **yashamoq** esa hayot kechirish, mavjud bo'lish holatini bildiradi. Ushbu antonimik birliklarning bir kontekstda qarama-qarshi qo'llanishi she'riy fikrning mazmuniy ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan. "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da misradagi so'zlar aynan keltirilmay, sifat so'z turkumidagi "tirik/o'lik" shakli berilgan [8; B. 173].

Boshingni ko'tar,

To'y kunida kerakmas aza.

Tadqiqotchilarning fikricha, lug'aviy antonimlardan ko'ra kontekstual (matniy) antonimlar badiiy matnda kuchli aktuallashtirib, tasvir ta'sirchanligiga keng xizmat qiladi [3; B. 34]. Yuqoridagi parchada ham shu hodisani ko'rishimiz mumkin. **To'y** asl turkiy so'z bo'lib, "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da "ziyofat, o'yin-kulgi bilan o'tkaziladigan marosim", deb izohlangan [9; B. 366]. **Aza** arabcha "qayg'u", "og'riq", "noxushlik" ma'nolarini anglatadi [9; B. 18]. O'zbek tilida esa "ayollarning marhum uyida yig'i bilan o'tkazadigan motam marosimi" ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi [11; B. 206]. **To'y** va **aza** so'zlari matndan tashqarida antonimlik hosil qilmaydi, lekin she'rda o'zaro antonim bo'lib kelgan.

Na och qolgan*, na* to'ygan*,

O'zinimas, o'zgani suyg'an

Sanduvochim – sarlochinim,

Turkiy titrog'im...

Mazkur parchadagi **och qolmoq** – oziq-ovqatga ehtiyoj sezish, qorni och holatda bo'lish, **to'ymoq** esa oziqlanish natijasida ehtiyojning qondirilishini anglatadi. Bir-biriga zid bo'lgan birliklardan foydalanish lirik nutqning hissiy-ekspressiv ta'sir kuchini yuksaltira olgan. "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da **to'ymoq-ochqamoq** shaklida

keltirilgan [8; B. 177].

Yer-u* ko'k yonayotgan bir kunda,
Ketmon dastasiga qo'llari ilonday chirmashib,
Chirmashib bo'g'ziga jon,
Lablariga qon,
Jon berdi Chori cholning jondan ortiq o'g'li.*

Lug'atda "yer-osmon // zamin-ko'k, samo" tarzida antonimlar berilgan [8; B. 74]. Yer-ko'k leksemalari she'riy matnda makonning ikki qarama-qarshi qutbini ifodalagan. Yer quyi, ko'k esa yuqori makon tushunchasini anglatadi. Ularning birikishi natijasida butun borliqni qamrab oluvchi kenglik tasavvuri yuzaga keladi. "Yer-u ko'k yonayotgan bir kunda" misrasida antonimik birliklarning qo'llanishi voqeaning keskinligi, og'irligi va dramatik ruhini yanada kuchaytirib, obrazli ifodaning ta'sirchanligini ta'minlagan.

*G'ivirlar
Baland**ga-pastga,
Demak, maqsadlari bor*

Mazkur parchada keltirilgan *baland-past* leksemalarining antonimligi lug'atda ham aynan shu shaklda berilgan [8; B. 35]. Ular fazoviy yo'nalish va holat nuqtayi nazaridan qarama-qarshi ma'nolarni ifodalaydi. Baland yuqori tomon, past esa quyi tomon ma'nosini bildiradi. Shoir ushbu antonimik juftlikni "*balandga-pastga*" shaklida qo'llash orqali harakatning turli yo'nalishlarda davom etishini ta'kidlagan hamda tasvirning obrazlilikini kuchaytirgan.

Nasriy asarlarda konflikt o'quvchi e'tiborini jalb etuvchi muhim omil sanalgandek, she'riyatda antonimlik ham badiiy ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi, poetik fikrning mazmuniy teranligi va ifodaviy kuchini oshiruvchi muhim vositalardan biridir. Falsafada: "Ziddiyat ...har qanday harakat va hayotiylikning manbayidir", – deyilgan [6; B. 110].

Suyagim yashirib ne qilding, etim?

*Pinhon**mi, ayon**mi, bitta qabr ko'p.*

Lug'atda "*oshkor-yashirin // oshkora-maxfiy // oshkora-pinhon // oshkora-xufiya*" tarzida antonimlar berilgan [8; B. 151]. *Ayon-pinhon* so'zlari nutq jarayonida antonim sifatida faol ishlatilmaydi. Lekin so'z ma'no jihatdan qarama-qarshilikni bildirayotganligi va "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da "*ma'lum*" so'zi bilan sinonimik qatorda "*ayon*" so'zining mavjudligiga (ravshan, oshkor, aniq) e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'zlarning antonimligiga shakshubha yo'q [7; B. 392]. *Ayon, oshkor, ravshan* so'zlarida ma'lumlik belgi darajasi anchayin ortiq, ko'proq kitobiy uslubga xos. Mazkur baytda *ayon* va *pinhon* so'zlari kontekstual antonim sifatida namoyon bo'lgan.

Ularmi dunyoning darakchilari,

Yaxshi-yu* yomon**ning o'roqchilari.*

"O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da *yaxshi-yomon* antonimligi keltirilgan [8; B. 203]. Leksemalar belgi-xususiyatning ijobiy va salbiy tomonlarini ifodalashi asosida o'zaro zidlangan. She'riyatda bunday birliklardan antitezalar hosil qilinadi. "Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritilgan) bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir" [5; B. 219–220].

*Ertalab**dan qoraygancha qosh*,**

Bajarardi ega yumushin.

Lug'atda "*ertalab-kech // ertalab-kechqurun // ertalab-oqshom // ertalab-shom*" ko'rinishida antonimlar berilgan [8; B. 200]. Tilak Jo'ra mazkur she'riy parchada *ertalab* so'ziga *qosh qorayguncha* iborasini antonim sifatida qo'llaydi. Shoir bunday antonimik birliklar asosida ifodalash orqali badiiy tasvirning lisoniy imkoniyatlarini kengaytirgan va o'zbek tili birliklarining ifoda imkoniyatlarining naqadar kengligini aniq ko'rsatib bergan.

Xo'p sirli daryodirman, behisob tug'yoni bor

*Dard degan armon**im bor, orzu**day darmonim bor.*

Shoirning so'z qo'llashdagi mahorati mazkur she'riy parchada yanada aniq gavdalangan. Bir satrning o'zida ikkita kontekstual antonimni qo'llaydi. She'rda lirik qahramonning ichki kechinmalarini, iztirob va unga qarshi qo'yilgan umid, najot holatini ta'sirchan ifodalagan.

Xulosa. Xullas, Tilak Jo'ra antonimik birliklar vositasida o'ziga xos, ta'sirchan badiiy ifodalar yaratgan ijodkorlardan biridir. Shoirning ko'plab she'rlarida uchraydigan antonimik birliklar qarama-qarshilikning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, uning badiiy so'z qo'llash mahorati, teran tafakkuri, zukko mushohadasi va falsafiy qarashlarini ham aks ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva D. Antisemiyaning lingvopoetik imkoniyatlari // Научный мир Казахстана. – 2010. – № 4 (32). URL: [Bibliografik tasdiq](#)
2. Begmatov E. A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b. URL: [O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti — kitoblar](#)
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2009. – 40 b. URL: [Bibliografik tasdiq](#)
4. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 144 b. URL: [Bibliografik tasdiq — Ziyonet materiallari](#)
5. Karimov S. A. O'zbek tilining badiiy uslubi: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent,

1993.URL: [Avtoreferatning elektron matni](#)

6. Ополев П. В. Противоречие в диалектике и синергетике // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2010. – № 1 (5). – С. 109–114.URL: [Издательство «Грамота» — maqola](#)

7. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati: ikki jildli / N. Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – I jild – 504 b.; II jild – 488 b. Mualliflar jamoasi: N. Mahmudov, D. Lutfullayeva, Y. Odilov, D. Xudoyberganova, M. Yo'ldoshev, Sh. Ko'chimov,

8. D. Andaniyazova, F. Musayeva.PDF, I jild: [To'liq PDF](#) PDF, II jild: [To'liq PDF](#)

9. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 232 b.URL: [O'zbek tilining ta'limiy korpusi — lug'at haqida](#)

10.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. I jild: Turkiy so'zlar. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.URL: [Bibliografik tasdiq — TSUULL materiali](#)

11.Qilichev E. Antonimlarning stilistik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1984. – № 2. – B. 55–58. URL: [Bibliografik tasdiq — Ziyonet elektron manbasi](#)

12.O'zbek tilining izohli lug'ati: olti jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.I jild – 962 b.; II jild – 1035/1036 b.; III jild – 843 b.; IV jild – 823 b.; V jild – 718 b.; VI jild – 862 b. URL: [O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi — kitob va lug'atlar](#)

URL: [Olti jildli lug'at taqdimoti haqida rasmiy ma'lumot](#)